Bo‘lajak o‘qituvchilarda kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari 2179
Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi

Dialekt va adabiy til: o‘zaro munosabat 2183
Jumanazarova Guljahon

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalariga kommunikativ kompetensiyalarni o‘rgatishda interaktiv ta’lim texnologiyalar 2187
Kimsanboyeva Ruxsoraxon Ziyodbek qizi

Pedagogik nizolarni hal etishda bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari 2190
Norjon Jamilova Abduxoliq qizi

Abu Nasr Farobiy asarlari asosida talabalarni boshqaruv madaniyatini rivojlantirish 2194
Shamsiyeva M. R.

O‘smirlarda affiliatsiya motivini shakllantirishning pedagogik-psixologik determinantlari 2196
Tojiboyeva Gulxumor Raxmanjanovna, Saidova Maftuna Xakim qizi

Преподаватель - русист в современной национальной школе: личный опыт и методические находки 2200
Хамидова Гулноза Турсунбаевна (Турсунбой кизи)

Цифровизация в дошкольном образовании: механизмы управления для повышения качества 2204
Иногамова Д. О.

Bolalar serebral falajida bolalarning pedagogik, tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiya kompleksida – logopedik korrektsiya 2210
Xusniddinova Barno Xodjiakbarovna

Maktab ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadlari va chora-tadbirlari 2214
Ma’rifat Abdullayeva

Tarbiyasi qiyin o‘smirlar bilan ishlashda xatti-harakatlarning buzilishi va xarakter nuqsonlarining oldini olish hamda tuzatishning ilmiy asoslari 2218
Mamayusupova Iroda Xamidovna

Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarda nutqni tekislashda multimodal ta’lim texnologiyalarining o‘rni 2224
Xodjabekova Surayyo Abduganiyevna

Maktabgacha ta’lim tashkilotida eko-art loyihalari 2229
Mamatova Xusnora Eshquvatovna

Влияние искусственного интеллекта на развитие личности детей старшего возраста 2232
Матчанова Камила Фарход кизи

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin orqali ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish 2237
Nazarova Asila Mamarasulovna

The Concept of Oral Speech Skills and Age- and Ability-Related Characteristics of School Students (Grades 5–6) 2241
Rustamova Khurshida Yusupovna

Akmeologik yondashuv asosida pedagogika fanini transformatsiya qilishda innovatsion texnologiyalarning o'rni 2245
Xusayinova Go'zal Abdurasulovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi 2249
Qo'chqarova Mahmuda Adhmovna

Fasilitatsion yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish 2252
Xoshimova Gulnoza Lukmonovna, Abduraimova Nilufar Baxtiyorjon qizi

Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanib maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish 2255
Qayimova Nargiza Rahmatqul qizi

Talabalarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz madaniyatni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari ... 2259
Axmedova Dilnora Kobiljonovna

Bo'lajak o'qituvchilarni professional nutq madaniyati bo'yicha tayyorlash innovatsiyalari 2262
Ismoilov Temurbek Islomovich

Bo'lajak o'qituvchilarda badiiy tafakkurning rivojlanish dinamikasiga ta'sir etuvchi omillar 2266
Shaxobitdinov Xayotbek Hakimjon o'g'li

Lexicon Expansion Model for ELF Learners: a Cognitive, Pedagogical, and Usage-Based Approach 2271
Komola Khikmatullaevna Usmanova

Ta'limni fundamentallashtirish sharoitlarida axborot xavfsizligi texnologiyalarini o'qitish usullari va o'quv materiallari 2275
Boymanov Jasur Isroil o'g'li

O'quvchilarda ta'lim jarayonida kimyoviy modellardan foydalanish tajribasi 2279
Jobborov Farxod Bo'riyevich

Fanlararo aloqadorlikdagi masalalarni dasturiy ta'minot vositasida STEAM ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali yechishga o'rgatish metodikasi 2282
Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich

Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida STEAM asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirishni tatbiq etishning usul, vosita va metodlari 2286
Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Shavkatova Jasmina Jamshid qizi

Ta'limda raqamli darsliklarning o'rni va ahamiyati ("Dasturlash" fani misolida) 2291
Tursunov Mirolim Ahmadovich

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog-tarbiyachi faoliyatiga kreativ yondashuv 2296
Z. S. Muxtorova

Abdulla Avloniy pedagogik asarlari orqali talabalarda ma'naviy-axloqiy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik ahamiyati 2300
Raxmatova Dilbar Anvar qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni qo'llashning samaradorligi 2304
Choriyeva Barno Alisher qizi

O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga asoslangan konstruktiv fikrlashga yo'naltirilgan ta'lim (kimyo fani misolida) 2307
Azamatova Dilafruz Saydiganiyevna

Совершенствование медиаграмотности будущих учителей начальных классов на основе интерактивных методов и геймификации 2311
Пулатова Муниса Садритдиновна

Talabalarda o'ziga bo'lgan ishonch hissini oshirishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ahamiyati 2317
Abdumannatova Nargiza Abdumajidova

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashga oid tushunchalarni nostandart vaziyatlar asosida rivojlantirish 2320
Raxmatova Nodira Imamovna

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida mustaqil so'z turkumlarini o'rgatishning ahamiyati 2323
Jo'rayeva Zuxraxon Akbarali qizi

ESG tamoyillarining global ta'lim siyosatidagi o'rni 2328
Tursunova Shahzoda Baxromovna

Internet kommunikatsiya vositalarining yoshlar ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga va ularning ijtimoiy xulq-atvoriga ta'siri 2334
Kamiljanova Malikaxon Ravshonbek qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy kompetensiyalarni shakllantirish ... 2338
Yusupova Nozima Mahamadaliyevna

Духовное воспитание и концепция совершенного человека в трудах Абдурахмана Джами..... 2342
Каримов Жамшид

Raqamli chalg'ish fenomeni sifatida fabbing: talabalarning psixologik holati va ijtimoiy xulq-atvori tahlili... 2347
Matchanova Dilbar Yusupboyevna

Talabalarning emotsional holati va psixologik barqarorligining akademik muvaffaqiyatga ta'siri..... 2350
Jabborova Malohat Azimovna

Challenges and Limitations of Using AI in Language Teaching..... 2355
Qayimova Nargiza Rahmatqul qizi

Rus tilidagi tadqiqotlarning tarixshunoslik talqini 2358
Axmatov M. M.

O'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyasini loyihalashda "Keys-stadi" metodikasining ahamiyati 2362
Xasanov Mansur Abrarovich, Muxammadiev Umarali Sheraliyevich

Umumta'lim maktablari musiqa darsida iqtidori o'quvchilarni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari 2367
Ergashev Murodbek Ikromovich

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar va samarali metodlar..... 2370
Ruzikulova Surayyo Muxiddinovna

Bo'lajak aktyorlarning kasbiy mahoratini takomillashtirishda jadid ma'rifatparvarlari metodikasini takomillashtirishning ilmiy asoslari..... 2374
Mamaniyozov Shaxzod Abror o'g'li

O'quv jarayoniga moslashuv ijtimoiy-psixologik muammo sifatida 2378
Sultanova Shahnoza Mirxalilovna

Ingliz va o'zbek tillaridagi sifatlarning qiyosiy tahlili 2382
Raxmonova E'zoza Sherzod qizi

Pedagogik mahorat asosida ta'lim metodlarining samaradorligini oshirish 2385
Karimov Ilhom Normamatovich, Alikulova Saodat Muxitdinovna

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining axloqiy tarbiyasini shakllantirish 2389
Yaqubova Dinora Bahodirovna

Ta'limning interfaol va innovatsion metodlari 2393
X. K. Qarshiboyeva

Роль международных оценочных программ в оценке знаний учащихся..... 2396
Каландарова Дилноза Самандаровна, Зарипова Зайнаб Нарзулло кизи

Inkorporatsion topshiriqlarning texnologiya ta'limida fanlararo integratsiyani ta'minlashdagi ahamiyati 2400
Jo'rayeva Dilnoz Raxmidinovna

O'zbek bolalar folklori tasnifi, janriy tarkibi va Oxunjon Safarov yondashuvi..... 2404
O'rinova Maftuna No'mon qizi

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirishning zamonaviy holatini tahlil qilish 2409
Xudoykulova Nilufar Xamdamovna

The Future of AI in English Language Teaching: Trends, Predictions, and Research Directions..... 2414
Mavlonova Sevinch Abdukarim qizi

Muhandis-texnik talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 2418
Nazarova Marg'uba Gulamovna

Oliy ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llashning zamonaviy modellari 2423
Xomidjonov Abrorjon Olimjon o'g'li

Maktabgacha ta'lim tizimida xavfsiz rivojlanish muhitini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari..... 2428
Maxkamova Husnida Ro'ziboyevna

O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari tahlili 2431
Mavlanova Saidaxon Umarovna

Matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish 2436
Yuldashev Bahodir Narzullayevich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Tarbiya darslari orqali birinchi sinf o‘quvchilarini maktabga samarali moslashtirish yo‘llari 2439
Tursunonova Nozima Ilxomovna

O‘quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari 2447
Axmedova Gavhar Faxriddinovna

Artificial Intelligence in Educational Management: Opportunities and Predictive Mechanisms in the Context of Uzbekistan 2451
Abduxamidova Muyassar

Malakali belbog‘li kurashchilarni mashg‘ulot jarayonida texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirish 2457
Ahmadjonov Dilmurod Davronjon o‘g‘li

Ijtimoiy tarmoqlarning kognitiv fikrlash rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta’siri 2460
Axmedov Davlatbek Saloxidin o‘g‘li

Developing Coordination and Balance in Athletics 2464
Dehqonova Mahmuda Ortiqovna

Bo‘lajak o‘qituvchilarni Case Study texnologiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash 2470
Hojiyeva Zulfiya O‘ktamovna, Doliyeva Maxfuza Inomiddinovna

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning ahamiyati 2473
G‘iyosova Dilovar Orif qizi

Intellekt xaritalar yordamida o‘quvchilarning “ijodiy fikrlash” ko‘nikmalarini rivojlantirish 2476
G‘aniyev Abduqahhor Gadoyevich

Zamonaviy rivojlanish tendensiyalari orqali yosh voleybolchilarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish 2482
Imomov Sirojiddin Ilhomovich

The Historical Roots of Business English and the Lingua Franca 2486
Jabborov Ilyosjon Abduraim ugli

O‘quvchilarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlashda darajalangan o‘quv topshiriqlaridan foydalanish 2490
Kadirova Gulnora Xasanovna

Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxtaning elektrofizik xususiyatlarini o‘rganish 2496
Kosimov Asroriddin Sadiyevich, Ubaydullayeva Komila Bozor qizi

Integrativ yondashuv asosida o‘quvchilarni kreativ fikrlashga o‘rgatish usullari (boshlang‘ich sinf matematika darslari misolida) 2501
M. M. Qosimova

O‘zbekiston Qurolli Kuchlarida harbiy an’analar va vatanparvarlik ruhini mustahkamlashning psixologik omillari 2504
Maxmudjonov I. I.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning kitobga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirishda raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish 2507
Muminova Dilfuza Bahromjanovna

Inklyuziv ta’lim jarayonida autizm spektri buzilgan bolalarning pedagogik-psixologik yondashuvi 2510
Qodirova Mahzuna Shamshidin qizi

Tabiiy fanlar darslarida guruhli ish shakllarini takomillashtirish nazariyasi va metodi 2513
Safarova Shahlo Shuhratali qizi

Maktabda informatika fanini o‘qitishda virtual va interaktiv laboratoriyalardan foydalanish 2517
Saidova Dilfuza Ergashovna, Sayfullayeva Sevinch Bahodir qizi

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik savodxonligini va axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari 2521
Saidova Mohinur Jonpo‘latovna, Sobirova Sabina San’at qizi

Developing Strength and Endurance in Wrestlers 2526
Shermatov Gulom Qaxxorovich

Teaching English for Medical Students: an Effective Approach to Language Acquisition 2532
Shermuxamadova Diyorakhon Nurmuhamad kizi

Sportda kamolotga erishish bosqichi birinchi yilida shug‘ullanuvchi dzyudochilarning qarshi hujum samaradorligini oshirish 2535
Sirojiddin Sa’dullayev Ilhom o‘g‘li

Sud psixolog ekspertlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ijtimoiy-psixologik omillar 2539
Tajiyeva Nilufar Tohirjon qizi

Malakali belbog‘li kurashchilarda texnik-taktik harakatlarni modellashtirish va harakatlar assimmetriyasini bartaraf etish 2543
To‘xtasinov Bobir Maxamadali o‘g‘li

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "4K" ta'limni amalga oshirishga tayyorlash texnologiyasi va metodik shart-sharoitlari 2546
Toshtemirova Maftuna Tolibjonovna

Ta'lim muassasalari o'quvchilarining ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishni amaliyotga tatbiq etishning pedagogik shart-sharoitlari 2550
Uzakov Arslon Avazovich

Maktab direktori faoliyatida psixopedagogik liderlik tamoyillari 2553
Xolboboyev Shaxruz Shokirovich

Ayollarda gender identivlik namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatalari 2559
Xudoynazarova Nodira Shaydullayevna

Boks texnikasini takomillashtirish usullari 2562
Xusanboy Mamatqulov

No-filologik yo'nalishlarda yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha pedagogik strategiyalar: transformativ yondashuv 2566
Yo'Ichiyeva Dilrabo Dilshod qizi

O'zbek va rus xalq tez aytishlaridagi tasvir vositalarining poetik vazifalari 2570
Ayupova Xilola Azamatovna

Инновационная методика интенсивного обучения студентов русскому языку как неродному в сопоставлении с их родным узбекским 2574
Касимов Азиз Бердимуратович

Sportchilarning musobaqa oldi psixoemotsional holatini tahlili 2578
Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li

Oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talabalar uchun ijtimoiy va kasbiy moslashuvni rivojlantirish texnologiyalari 2581
Amriyeva Dilfuza Ruzievna

Ta'lim jarayonida semiotik yondashuvni shakllantirishga qaratilgan semiotik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi 2586
Abdusamatov Alisher Sobirovich

Oliy o'quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini mezonlar asosida tahlil etishda tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning tahlili 2591
Asqarov Abrorjon Hayitmirzaevich

Ta'limni raqamlashtirish sharoitida oliy ta'limni boshqarishning falsafiy, psixologik, ijtimoiy va pedagogik shartlari 2602
To'rabekov Farxod Sanakulovich

Parataekvondocilarning musobaqa oldi tayyorgarligi 2607
Abdufattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li

Linguistics in Diplomatic Discourse: The Role of Language in International Relations 2610
Gulmira Kamoladdinovna Madirimova

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishning lingvistik, pedagogik va psixologik asoslari 2613
Jo'rayeva Gulchexra Abduvohidovna

Milliy harakatli o'yinlarning talaba yoshlarda chaqqonlik jismoniy sifatini shakllantirishdagi ahamiyati 2617
Raxmatova Nodira

Fitrat asarlarida vatanparvarlik g'oyalarining ma'naviy-ma'rifiy asoslari 2621
Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich

Geometriya darslarida tarixiy materiallar asosida o'quvchilarning mustaqil ta'limini rivojlantirish 2625
Nosirova Dilnoza Toir qizi

Funksiya grafigini chizish kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning o'rni 2629
Musurmonova Shahlo G'ulomovna

Zamonaviy innovatsion ta'lim tizimida STEAM yondashuvining qo'llanilishi, imkoniyatlari va istiqbollari ... 2633
Rashidova Sanobar Zokirovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning innovatsion texnologiyalari 2638
Qosimova Zuhraxon G'afur qizi

Xalq og'zaki ijodi va folklor turlarining ta'limdagi o'rni 2642
Safarova Nigora Oxunjonovna, Bozorova Nozigul Ramazonovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqni o'stirishning zamonaviy va samarali yechimlari 2647
Karimova Kamola Komil qizi

Tilshunoslikda terminlarning funksional xususiyatlari 2651
Yavminova Nafisa Mashrobjonovna

Basketbol sport turining nazariy-metodik asoslari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari 2654
Achilov Oybek Hakimovich

Yuqori intensivlikdagi interval mashg'ulotlarda kardio-respirator chidamlilikni oshirish samaradorligi 2657
Adilbekov Toxir To'xtayevich

Intensiv mashg'ulotdan so'ng yengil atletikachilarning ish qobiliyatini tiklash uchun ergogen moddalar 2661
Allamuratov Mirtaza

Raqamli va real laboratoriyalarning integratsiyasi orqali fanlararo o'qitish samaradorligini oshirish 2665
Baymatova Nargiza Tuxtabayevna

Pedagogical Foundations of Chemistry Lessons tn the use of Natural Resources of Karakalpakstan 2669
Gulnaz Nabatovna Bekimbetova

Gandbolning zamonaviy rivojlanishi, texnik-taktik tayyorgarlik asoslari hamda to'garaklarda o'rgatish metodikasi 2673
O'rinov Oblaqul Jumayevich

Оценка биохимических показателей адаптации юных спортсменов к скоростно-силовым нагрузкам 2676
Шукурова Сайёра Садуллаевна

Sportchilarning musobaqa oldi psixoemotsional holatining tahlili 2680
Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li

Teaching Perfect English Pronunciation 2683
Uralova Nigora Abduvaliyevna

O‘QUVCHILARDA KREATIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Axmedova Gavhar Faxriddinovna
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tizimi sharoitida o‘quvchilarda kreativ kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari hamda amaliy mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Kreativ kompetensiya shaxsning nostandart fikrlash, muammolarga yangicha yondashish, innovatsion g‘oyalar yaratish va ularni amaliy faoliyatga tatbiq eta olish qobiliyatlari majmui sifatida talqin etiladi. Maqolada pedagogik, psixologik, didaktik hamda raqamli mexanizmlarning o‘zaro integratsiyasi o‘quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali omili sifatida asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: kreativlik, kreativ kompetensiya, ijodiy fikrlash, innovatsion ta’lim, pedagogik mexanizmlar.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the theoretical and methodological foundations and practical mechanisms for developing students’ creative competencies within the modern education system. Creative competence is interpreted as a set of abilities related to non-standard thinking, innovative approaches to problem-solving, the generation of original ideas, and their practical implementation. The study substantiates the significance of integrating pedagogical, psychological, didactic, and digital mechanisms as an effective factor in fostering students’ creative competencies.

Key words: creativity, creative competence, creative thinking, innovative education, pedagogical mechanisms.

Аннотация: В статье с научной точки зрения анализируются теоретико-методологические основы и практические механизмы формирования и развития креативных компетенций у учащихся в условиях современной системы образования. Креативная компетенция рассматривается как совокупность способностей к нестандартному мышлению, инновационному подходу к решению проблем, генерации новых идей и их практической реализации. Обосновывается значимость интеграции педагогических, психологических, дидактических и цифровых механизмов как эффективного фактора развития креативных компетенций обучающихся.

Ключевые слова: креативность, креативная компетенция, творческое мышление, инновационное образование, педагогические механизмы.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatning intellektual va innovatsion rivojlanishi bevosita ta’lim tizimining sifati hamda unda shakllantirilayotgan kompetensiyalar bilan uzviy bog‘liqdir. XXI asrda bilimlarning tez yangilanishi, texnologik taraqqiyot va globallashuv jarayonlari o‘quvchilardan nafaqat akademik bilimlarni, balki kreativ fikrlash, muammolarga noodatiy yondashish hamda yangi g‘oyalar ishlab chiqish qobiliyatlarini ham talab etmoqda. Shu bois, ta’lim jarayonida o‘quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida maydonga chiqmoqda.

Hozirgi vaqtda an’anaviy ta’lim modellari ko‘proq reproduktiv faoliyatga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini to‘liq namoyon etish imkoniyatini cheklab qo‘ymoqda. Ta’lim mazmuni va metodlarining standartlashuvi, baholash tizimining natijaga yo‘naltirilganligi kreativlikni rivojlantirishda muayyan to‘siqlarni yuzaga keltirmoqda. Natijada, ta’lim amaliyotida kreativ kompetensiyalarni shakllantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni ilmiy asosda joriy etish zarurati tobora ortib bormoqda.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, kreativ kompetensiyalar o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim omil bo‘lib, ularning kelajakdagi ijtimoiy moslashuvi, raqobatbardoshligi hamda innovatsion faoliyatga tayyorgarligini belgilab beradi. Shu nuqtayi nazardan, kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlarini pedagogik, psixologik va didaktik jihatdan kompleks tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi o‘quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini aniqlash va ularning ta’lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlarini asoslab berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- kreativ kompetensiya tushunchasining nazariy asoslarini tahlil qilish;
- kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlarini tasniflash;
- ularning ta’lim jarayonidagi amaliy ahamiyatini ochib berish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida keng tadqiq etilgan. Ushbu masalaning o‘rganilganlik darajasi xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar tahlili asosida quyidagi asosiy yo‘nalishlarda shakllanganini ko‘rsatadi.

Xorijiy tadqiqotlarda kreativlik shaxsning intellektual va psixologik xususiyati sifatida talqin etilib, uning kognitiv mexanizmlari, divergent tafakkur bilan bog‘liqligi hamda ijodiy fikrlashni rivojlantirish omillari chuqur tahlil qilingan. Xususan, J. Guilford, E. Torrance, T. Amabile, R. Sternberg kabi olimlar ishlarida kreativlikning nazariy asoslari, uning tarkibiy komponentlari va baholash mezonlari yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda kreativlik ko‘proq individual psixologik qobiliyat sifatida o‘rganilgan bo‘lib, ta’lim jarayonida uni rivojlantirish mexanizmlariga doir metodik tavsiyalar berilgan.

Pedagogik yo‘nalishdagi tadqiqotlarda esa kreativlik va kreativ kompetensiya tushunchalari kompetensiyaviy yondashuv doirasida talqin qilinadi. I. A. Zimnyaya, A. V. Khutorskoy, K. Robinson, shuningdek, OECD va UNESCO hujjatlarida kreativ kompetensiyalar zamonaviy ta’lim natijasi sifatida asoslab berilgan. Ushbu ishlarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari, interfaol metodlar hamda innovatsion ta’lim texnologiyalarining samaradorligi ko‘rsatib o‘tilgan.

MDH mamlakatlari va mahalliy olimlar tadqiqotlarida kreativ kompetensiyalarni shakllantirish masalasi asosan pedagogik texnologiyalar, ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish va o‘qituvchi kompetentligini rivojlantirish bilan bog‘liq holda yoritilgan. Jumladan, N. A. Muslimov, U. Sh. Begimkulov, N. S. Saidahmedov va boshqa tadqiqotchilar ishlarida ta’lim jarayonida innovatsion hamda kreativ yondashuvlarni joriy etish masalalari tahlil qilingan. Biroq ushbu tadqiqotlarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlarining tizimli modeli hamda ularning psixologik-pedagogik integratsiyasi yetarli darajada yoritilmagan.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish muammosi ko‘proq nazariy va metodik jihatdan o‘rganilgan bo‘lib, uni amaliy-pedagogik mexanizmlar, baholash mezonlari hamda rivojlanish darajalari asosida kompleks tadqiq etishga ehtiyoj mavjud. Ayniqsa, ta’lim jarayonida kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik, psixologik va tashkiliy mexanizmlarini yagona tizim sifatida asoslash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilab, o‘quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yanada chuqurroq o‘rganish zaruratini taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda o‘quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash va tahlil qilish maqsadida sifat va miqdoriy tadqiqot usullaridan kompleks foydalanildi. Ma’lumotlar pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, ilg‘or xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlar natijalarini o‘rganish orqali yig‘ildi. Shuningdek, ta’lim amaliyotida qo‘llanilayotgan interfaol va innovatsion metodlar yuzasidan kuzatuv materiallari hamda pedagogik tajriba natijalari umumlashtirildi. Olingan ma’lumotlar tahlil jarayonida qiyosiy, tizimli va mantiqiy tahlil usullari asosida qayta ishlanib, kreativ kompetensiyalarning tarkibiy komponentlari va ularni rivojlantirish mexanizmlari o‘rtasidagi bog‘liqliklar aniqlashtirildi. Natijalarni tahlil qilishda umumlashtirish va interpretatsiya metodlari qo‘llanilib, ilmiy xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida kreativlik shaxsning yangicha fikrlash, noodatiy g‘oyalar ilgari surish, muammolarga nostandart yondashish hamda mavjud bilimlarni yangi kontekstda qo‘llay olish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Kreativlik nafaqat intellektual faoliyat mahsuli, balki shaxsning motivatsion, emotsional-irodaviy va ijtimoiy jihatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab psixik hodisa hisoblanadi.

Kreativ kompetensiya esa kreativlikning amaliy va barqaror namoyon bo‘lish shakli bo‘lib, u o‘quvchining bilim, ko‘nikma, malaka, shaxsiy tajriba va qadriyatlar tizimini integratsiyalashgan holda yangi pedagogik vaziyatlarda samarali faoliyat yurita olish qobiliyatini ifodalaydi. Kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan

kreativ kompetensiya – bu o‘quvchining muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, tanqidiy va divergent fikrlash, refleksiya hamda o‘zini o‘zi rivojlantirishga tayyorlik darajasidir.

Ilmiy manbalarda kreativ kompetensiya kognitiv komponent (bilimlar, tasavvurlar, kreativ tafakkur), operatsion-faoliyat komponenti (ijodiy usullarni qo‘llash, muammo yechish strategiyalari), motivatsion-qiymat komponenti (ijodga qiziqish, ichki motivatsiya) hamda refleksiv komponent (o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash) orqali izohlanadi.

O‘quvchilarda kreativ kompetensiyalarni shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan bevosita bog‘liqdir. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv ta’lim jarayonini bilim berishdan ko‘ra, o‘quvchilarda hayotiy va kasbiy vaziyatlarda qo‘llaniladigan kreativ faoliyat tajribasini shakllantirishga yo‘naltiradi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quvchining individual qobiliyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini inobatga olib, uning ijodiy salohiyatini ochishga xizmat qiladi. Faoliyatga asoslangan yondashuv kreativ kompetensiyalarni faqat faol ijodiy faoliyat – loyiha, muammoli topshiriqlar va tadqiqot ishlari orqali rivojlantirish mumkinligini asoslaydi. Konstruktivistik yondashuv esa o‘quvchining bilimni tayyor holatda emas, balki mustaqil izlanish, muhokama va refleksiya orqali qurishini ta’kidlaydi. Mazkur yondashuvlar o‘zaro integratsiyada qo‘llangandagina kreativ kompetensiyalar barqaror va tizimli rivojlanadi.

Psixologik nuqtayi nazardan kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari shaxsning ichki imkoniyatlarini faollashtirishga qaratilgan bo‘lib, bunda motivatsion mexanizm orqali o‘quvchida ijodiy faoliyatga nisbatan ichki ehtiyoj va qiziqish shakllantiriladi, divergent tafakkurni rivojlantirish mexanizmi orqali muammoni bir nechta yechimlar asosida ko‘ra olish qobiliyati rivojlantiriladi, emotsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmi orqali ijodiy xatolarga nisbatan tolerant munosabat shakllantiriladi hamda refleksiv mexanizm yordamida o‘quvchining o‘z ijodiy faoliyatini tahlil qilish va baholash ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Ushbu mexanizmlar ta’lim muhitida psixologik xavfsizlik, erkinlik va qo‘llab-quvvatlovchi iqlim mavjud bo‘lgandagina samarali ishlaydi.

Pedagogik mexanizmlar o‘quv jarayonining tashkiliy-metodik jihatlari bilan belgilanib, muammoli va tadqiqotga yo‘naltirilgan topshiriqlarni qo‘llash, loyiha va interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish, fanlararo integratsiyani ta’minlash, raqamli va kreativ ta’lim texnologiyalarini joriy etish hamda baholashning rivojlantiruvchi (formativ) turlarini qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Ushbu mexanizmlar o‘quvchilarning faolligini oshirib, ularni mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilarda kreativ kompetensiyalarni samarali rivojlantirish, avvalo, ta’lim jarayonida zarur bo‘lgan didaktik shart-sharoitlarning yaratilishini taqozo etadi. Bunday shart-sharoitlar o‘quv faoliyatining mazmuni, shakli, metodlari hamda pedagog va o‘quvchi o‘rtasidagi subyekt–subyekt munosabatlari bilan belgilanadi. Didaktik jihatdan kreativ kompetensiyalar o‘quv jarayonining muammoli va izlanishga yo‘naltirilgan bo‘lishi, o‘quv materialining ochiq, ko‘p variantli va muhokamaga asoslangan tarzda taqdim etilishi, mustaqil fikrlashni rag‘batlantiruvchi topshiriqlar ulushining oshirilishi hamda o‘quvchilarning individual va jamoaviy ijodiy faoliyatini uyg‘unlashtirish sharoitida muvaffaqiyatli shakllanadi. Mazkur shart-sharoitlar ta’lim jarayonini reproduktiv emas, balki ijodiy faoliyat maydoniga aylantirib, o‘quvchilarning kreativ kompetensiyalarini faollashtiradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim mexanizmi hisoblanadi. Xususan, interfaol va innovatsion metodlar o‘quvchilarning tafakkur jarayonini faollashtirib, ularda yangi g‘oyalar yaratish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Amaliyotda samaradorligi isbotlangan metodlar qatoriga muammoli ta’lim metodi, loyiha metodi, aqliy hujum (brainstorming), keys-stadi metodi hamda rolli o‘yinlar va simulyatsiyalar kiradi. Mazkur metodlarning tizimli qo‘llanilishi o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki kreativ kompetensiyalarining sifat jihatdan rivojlanishini ham ta’minlaydi.

Fanlararo integratsiya kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim pedagogik mexanizmlaridan biri bo‘lib, turli fanlar mazmunining o‘zaro uyg‘unlashuvi o‘quvchilarda hodisa va jarayonlarga kompleks, tizimli hamda kreativ yondashuvni shakllantiradi. Natijada o‘quvchilar bilimni alohida faktlar majmui sifatida emas, balki ijodiy faoliyatda qo‘llaniladigan yaxlit tizim sifatida o‘zlashtiradilar.

An’anaviy baholash tizimi asosan bilimlarni reproduktiv tekshirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida rivojlantiruvchi baholash alohida ahamiyat kasb etadi. Rivojlantiruvchi baholash o‘quvchilarning ijodiy jarayonini rag‘batlantiradi, xatolarni rivojlanish manbai sifatida talqin etadi hamda refleksiya va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Baholash mezonlarining ochiq va tushunarli bo‘lishi o‘quvchilarda o‘z imkoniyatlarini real baholash va kreativ o‘sishga intilish motivatsiyasini kuchaytiradi.

O‘qituvchi kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining asosiy subyekti hisoblanib, uning pedagogik pozitsiyasi nazoratchidan ko‘ra, maslahatchi, fasilitator va hamkor rolida namoyon bo‘lishi muhimdir. O‘qituvchi faoliyatida o‘quvchilar tashabbusini qo‘llab-quvvatlash, ijodiy muhitni shakllantirish, erkin fikrlash va xato qilish huquqini tan olish hamda individual yondashuvni ta’minlash kabi strategik yo‘nalishlar ustuvor bo‘lishi zarur. Bunday pedagogik strategiya o‘quvchilarni passiv bilim oluvchidan faol va ijodiy fikrlovchi shaxsga aylantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada o‘quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida har tomonlama tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari kreativ kompetensiyalar shaxsning intellektual, motivatsion, faoliyat va refleksiv komponentlari integratsiyasida shakllanadigan murakkab pedagogik hodisa ekanligini ko‘rsatdi.

Tahlillar shuni tasdiqladiki, o‘quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni tasodifiy emas, balki maqsadli, tizimli va uzluksiz pedagogik mexanizmlar orqali amalga oshirilgandagina samarali natija beradi. Xususan, ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish, interfaol va innovatsion metodlardan foydalanish, fanlararo integratsiyani ta’minlash hamda rivojlantiruvchi baholash mexanizmlarini joriy etish o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini faollashtiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ldi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o‘qituvchining pedagogik pozitsiyasi va strategik faoliyati kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘qituvchining fasilitator, hamkor va motivator sifatidagi roli o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik hamda ijodiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, psixologik xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitining mavjudligi o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini to‘liq namoyon etish imkonini beradi.

Umuman olganda, maqolada ishlab chiqilgan nazariy xulosalar va amaliy umumlashmalar o‘quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik tizimni takomillashtirish, ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda ta’lim sifatini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida kreativ kompetensiyalarni baholash mezonlarini aniqlashtirish, ularni rivojlantirish modellarini ishlab chiqish hamda empirik tadqiqotlar o‘tkazish uchun mustahkam metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Guilford J. P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967.
2. Torrance E. P. Creativity in the Classroom. – Washington: National Education Association, 1977.
3. Amabile T. M. Creativity in Context. – Boulder: Westview Press, 1996.
4. Abduqodirov A. A. Ta’lim jarayonida kreativ yondashuvlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020.
5. Vygotsky L. S. Imagination and Creativity in Childhood. – New York: Routledge, 2004.
6. Begimkulov U. Sh. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
7. Muslimov N. A. Pedagogik kompetentlik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
8. Saidahmedov N. S. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2019.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Mas’ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali 26.09.2023-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.